

## SHO‘RLANGAN TUPROQ SHAROITIDA IHOTA-O‘RMON DARAXTLARI TURLARINI TANLASHNING AHAMIYATI

**Sirojiddinov Asliddin Abduvohidjon o‘g‘li**

Guliston davlat universiteti

Ishlab chiqarish texnologiyalari fakulteti

4-kurs talabasi

E-mail: [sirojiddinovasliddin5@gmail.com](mailto:sirojiddinovasliddin5@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekistonda sho‘rlangan tuproq sharoitida ihota-o‘rmon daraxtlari turlarini tanlash, sho‘rlanish va erroziyani bartaraf etish yo‘llari va shu kabi masalalar ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** Qishloq xo‘jaligi, chorvachilik, ixota, davlat, o‘rmon, lalmi, Mirzacho‘l.

Qishloq xo‘jaligi ekinlari, chorvachilik fermalari, kanallar, aholi punktlari, avtomobil va temir yo‘llar, suv omborlari va boshqa obyektlarni tabiatning noqulay hodisalari (qurg‘oqchilik, tuproq eroziyasi, sel, qor )dan saqlash va mikroiklimni yaxshilash maqsadlarida barpo qilinadigan o‘rmon daraxtzorlari- ihotazorlar deyiladi. Ular o‘rmon massivlari, tasmasimon va to‘p-to‘p shaklda bo‘lishi mumkin. Bu daraxtzorlar o‘rmonlarning 1-guruh toifasiga kiradi. Bajaradigan vazifasiga qarab ihota daraxtzorlari quyidagi guruhlarga bo‘linadi: davlat ihota o‘rmonzorlari; lalmi yerlardagi ihota daraxtzorlari; kanallar atrofidagi ihota o‘rmonzorlari; sug‘oriladigan yerlardagi dala o‘rmon ihotazorlari; tog‘ qiyaliklaridagi suvlarni tartibga solish ihotazorlari; jarliklar atrofidagi o‘rmon ihotalari; tog‘ meliorativ ihota daraxtzorlari; yaylov o‘rmon ihotazorlari; fermalar atrofidagi o‘rmon ihotazorlari; yashil soyabonlar; ko‘chma qumlarda barpo etilgan o‘rmon ihotazorlari. Ihota daraxtzorlarini barpo

etishda asosiy (himoyalovchi), yo‘ldosh (tuproqning vertikal kesimini zichlaydigan) daraxtlar va buta (tuproqni eroziyadan himoyalaydigan)lardan foydalaniladi.

Ihota daraxtzorlarining quyidagi turlari ko‘proq qo‘llanadi: lalmi va sug‘oriladigan yerlarda daraxt va butalar ekib, 2-4, ba‘zan 5 qator dala ihota daraxtlari mintaqasi hosil qilinadi. Shamol kuchli bo‘lgan mintaqalarda (Farg‘ona vodiysining Qo‘qon tumanlari guruhi, Mirzacho‘l va sh.k.) 4-5 qatorli panjarasimon daraxtzor mintaqalari (mintaqaning butun vertikal kesimi bo‘yicha bir xil oraliqda yo‘laklar qoldiriladi) yaxshi samara beradi. O‘zim yashab kelayotgan Mirzacho‘lda ihota maqsadida asosan osiyo qayrag‘ochi(sada), akatsiya yana kamroq terak va boshqa daraxtlar ekilgan. Yer osti sizot suvining yuza joylashganligi sababli ko‘plab daraxt turlari sog‘lom va sifatli holda uzoq yillar yashay olmaydi. Ko‘p daraxtlar qurib nobud bo‘lganligini, shuningdek zararkunanda va kasalliklar bilan shikastlanganligini kuzatish mumkin. Oqibatda ihota daraxtzorlari keskin siyraklashib qoladi va aksariyat o‘rinlarda qurib yo‘q bo‘lib ketadi. Shu tariqa yo‘q bo‘lib ketgan daraxtzorlarni o‘z vaqtida yangidan ekib tiklanmaganligidan shamol ta‘sirida ko‘plab maydonlarda tuproqning erroziyaga uchrashi, foydali tuproq namligining behuda sarflanishi kabi holatlarni sodir bo‘lishiga olib keladi. Guliston davlat universiteti mintaqaviy muammolarni o‘rganish yuzasidan qator yillardan buyon tadqiqot ishlari olib borilib, Mirzacho‘l tabiiy iqlim sharoitiga mos, kasallik va zararkunandalar ta‘siriga bardoshli daraxt turlarining bir nechasi aniqlandi. Jumladan sada, chinor, tut, jiyda, tol, eman, yasen, akatsiya kabi daraxtlarning rivojlanishi o‘rganib chiqildi. Olingan tadqiqot va kuzatishlar natijalariga ko‘ra Mirzacho‘l sharoitida ihota daraxtzorlari sifatida ekib parvarish qilish uchun eng avvalo eman, yasen, chinor, qirim qarag‘ayi, akatsiya va tut ketma-ketligi aniqlandi va tavsiya etildi. Bular orasida yasen, eman va chinor daraxtlarini sog‘lom o‘sib rivojlanayotganligi, kasallik va zararkunandalar bilan shikastlanmaganligi aniqlandi.

Mirzacho‘l sharoitida o‘stirib kelinayotgan 40-45 yoshli eman va yasen daraxtlarining holati o‘rganilganda daraxtlarning asosiy tanasi diametri 48-55 sm sanoatbop qism uzunligi o‘rtacha 5-7 m, shoxlarning serbarg va ildizning baquvvat

rivojlanganligi aniqlandi. To‘plangan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki yuqorida aytib o‘tilgan daraxt turlari Mirzacho‘l iqlim sharoitida ko‘paytirish uchun eng afzal deb belgilandi. Tavsiya etilayotgan daraxt turlarini ekib ko‘paytirish bilan eng avvalo sog‘lom ihota o‘rmoni paydo qilinsa, ikinchidan ulardan qurilish va mebelsozlikda noyob yog‘och materialiy tayyorlashga erishish mumkin. Hozirda Sirdaryo viloyatining bir necha fermer xo‘jaliklarida tanlanib tavsiya etilayotgan daraxt turlarini ekib ko‘paytirish uchun maxsus tajriba mikropitomnik ko‘chatzor tashkil etilib, sifatli ko‘chatlar yetishtirish yo‘lga qo‘yildi. Dala ihota daraxtzor mintaqalari shamol tezligini pasaytiradi, tuproqni shamol eroziyasidan saqlaydi, qorning bir tekisda to‘planishiga va namni saqlashga imkon beradi. Suvni tartiblovchi daraxtzor mintaqalari qiyaroq yerlarda barpo qilinadi. Ularning asosiy vazifasi erigan qor suvlari va yog‘inlarning oqib ketishini kamaytirishdan iborat. Shuningdek, ular tuproqni yuvilib ketishdan saqlaydi, yer sirtidagi suvlarning tuproq ostiga o‘tishini osonlashtiradi. Daraxtzor mintaqalarining suvni tartiblovchilik rolini oddiy gidrotexnika inshootlari-terrasalar, marzalar, ariqchalar yordamida kuchaytirish mumkin. Soylik va jarlik bo‘ylari daraxtzor mintaqalari, asosan, soylik va jarlik bo‘ylarini yuvilishdan saqlashga xizmat qiladi. Bunday daraxtzorlar 12,5–21 m kenglikda qalin qilib ekiladi, ba‘zan esa soylik va jarlik yoqalari yoppasiga o‘rmonzorga aylantiriladi. Tog‘ yonbag‘rilari o‘rmonlari seldan saqlash maqsadini ko‘zda tutadi. Chirchiq va Samarqand o‘rmon xo‘jaliklarida sel xavfi bo‘lgan havzalarning bir qancha ming ga maydoni o‘rmonlashtirilgan. Qumliklarda ihota daraxtlari o‘tqazish deflatsiyani oldini olish, ko‘chma qumlarni mustahkamlash va cho‘l yaylovlarining o‘rmon melioratsiyasi maqsadlarida amalga oshiriladi. Kanal bo‘ylari daraxtzorlari suvning bug‘lanishini kamaytiradi, grunt suvlari sathini pasaytiradi, kanal bo‘ylaridagi yerlarni qayta sho‘rlanishdan saqlaydi, suv omborlari atrofiga daraxtlar o‘tqazish yer usti suv oqimini kamaytirib, uni tuproq ostiga va gruntga ko‘chiradi, qirg‘oqni yuvilishdan saqlaydi, sohilbo‘yi hududlarning gidrologik rejimini yaxshilaydi. Aholi punktlari atrofiga va yo‘l yoqalariga daraxt o‘tqazish shamol tezligini pasaytiradi, qurg‘oqchilik ta‘sirini yumshatadi, mikroiklimni

yaxshilaydi, temir yo‘llar va avtomobil yo‘llarini qor bosishidan saqlaydi. Ihota daraxtzorlari shamolga nisbatan joylanishiga qarab asosiy (shamol yo‘nalishiga ko‘ndalang) va yordamchi (asosiy ihotazorga perpendikulyar) turlarga bo‘linadi. Asosiy o‘rmon ihotazorlari oralig‘i shamolning kuchiga qarab 300-600 m, yordamchi ihotazorlar oralig‘i 800-1200 m bo‘ladi. Ihota daraxtzorlari 3-5 qatordan iborat bo‘lib, qatorlar oralig‘i 2,5-3 m, qator ichida 1-2 m ga teng bo‘ladi.

Dala, aholi punktlari, suv omborlari atrofiga, kanal va yo‘l yoqalariga dub, qayrag‘och, terak, tol, jiyda, chinor va shunga o‘xshash daraxtlar, tog‘ yon bag‘irlariga archa, dub, yong‘oq, bodom ekiladi. Qumlarni mustahkamlashda esa saksovu, qandim, shumtol ekiladi.

Shunday qilib ihotazorlarning turlari yerning tabiiy holatiga qarab tanlanadi va ekiladi. Sho‘rlangan yerlardagi tuzlarning miqdorini arzon va tabiiy usulda ketqazish hamda hayvonot olomi turlariga boshpana, ekologiya uchun kislorod manbai hisoblangan bu ekosistemani ekish har tomonlama foydali ekanligi insoniyat uchun ham ahamiyatlidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Karimov I.A. Dehqonchilik taraqqiyoti farovonlik manbai. T.: O‘zbekiston, 1994.
2. Karimov I.A. “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarini chuqurlashtirish yo‘lida” T. “O‘zbekiston” 1995 yil
3. Anikin B.A. Logistika: Учеб. пособие. М.: Инфра М. 2000
4. Molchanova A. I., Boyko N. P., Polezashitnoye lesorazvedeniye v O‘zbekistane, M., 1969; Agrolesomeliyatsiya.\
5. A.Q.Qayimov. Aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish. -T .: «Fan va texnologiya», 2012,
6. Bo‘riev X.Ch., Jononbekova A.T., Abdurahmonov A. Gulchilik. T.: «Mehnat», 1999.
7. Dosaxmetov A.O., Xoshimov K.X. Metodicheskie ukazaniya po ozeleneniyu naselanntix mest. Tashkent, 1993.

8. Dosaxmetov A.O. Aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish. Ma’ruzalar matni. Toshkent, ToshDAU, 2001.
9. Eroxina V.I. i dr. Ozelenenie naseleonnux mest. Spravochnik. Moskva-«Stroyizdat», 1987.
10. Kuzmichev I., Pechenisin V. Ozelenenie gorodov i syol Uzbekistana.

